

THE ROLE OF PEDAGOGICAL SKILLS IN DETERMINING THE STUDENTS 'TALENT AND DEVELOPING THEIR TALENT'

Ma'rifat Yorkin Kizi

Jizak State Pedagogical Institute Master of Pedagogical Theory and History Hatamova

ANNOTATION:

This article provides information on the role and importance of pedagogical skills in the identification and development of gifted students of school age, and ways to properly organize education and upbringing.

Keywords: quality and effectiveness of education, talent, ability, knowledge, specific, creative

INTRODUCTION:

Bugungi kunda ilm-fan, texnika va ishlab chiqarish sohalarining tez sur'atda jadallik bilan rivojlanishi barcha ta'limga muassasalarida ta'limga tarbiya sifatini mazmunan yangi bosqichga ko'tarishni talab etmoqda. Bu esa yoshlar bilan olib borilayotgan ishlar ta'sirchanligini oshirishga xizmat qiladi.

Mamlakatimizda faoliyat ko'rsatayotgan pedagog xodimlarning ma'naviy qiyofasi, aqliy salohiyati va kasbiy mahoratiga nisbatan yuqorida fikrga asosan jiddiy talablar qo'yilmoqda. Kelajagimiz egalari bo'lgan yosh avlod ta'limi va tarbiyasiga qaratilayotgan e'tibor bir kun kelib o'z natijasini bermay qolmaydi, albatta. Ayniqsa, maktab yoshidagi o'quvchilar ta'limga tarbiyasiga yuksak e'tibor berilib, farzandlamizning iqtidor va iste'dodlari erta aniqlanib shu asosida ta'limga sohalari bo'yicha yo'naltirilib o'qishlariga alohida e'tibor berilmoqda.

Binobarin, "Mustaqil fikr yuritadigan, to'g'ri va halol, jasur avlodni tarbiyalash davrimizning dolzarb muammolaridandir". Darhaqiqat, XXI asr intellektual, o'z mustaqil,

sog'lom fikriga ega yoshlarni tarbiyalaydigan asrdir.

Shu bois, bolalarning puxta bilim olishlari, teran fikrlashlari uchun, eng avvalo, ta'limga beruvchining mahorati, bilimi, layoqati muhim spetsifik xarakterga ega. Bugun o'zini pedagogman deb hisoblagan mutaxassis, albatta, bolalarning ta'limga tarbiya olishiga jiddiy e'tibor qaratmog'i lozim.

Bisning asosiy maqsadimiz – o'quvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatish, ularni ijodkorlikka jalb etishdan iborat. Negaki, bugungi kunda ish beruvchi ham mustaqil fikrlaydigan, olgan bilimlarini muammolarni hal etishda bemalol qo'llay oladigan, tanqidiy mulohaza yuritishga qodir bo'lgan, til zahiri boy, savodli xodimni ishga olishdan manfaatdor. Shu nuqtai nazardan qaraganda, o'qituvchi faoliyatidagi eng muhim narsa bu – o'quvchilarni o'rganishga o'rgatish. O'quvchilarning o'rganishi kerak bo'lgan narsalari esa cheksiz ko'p – eng muhimi, ular mehnatdan qochmaslikka, ongli, samarali, ijodkorona va mas'uliyat bilan mehnat qilishga o'rganishlari lozim. Bugungi kunda o'qituvchilar oldiga qo'yilayotgan talab ham shu: o'quv tarbiya jarayonini muntazam takomillashtirib borish, ta'limga tarbiya bilan bog'liq, rivojlantiruvchi va albatta, amaliy masalalarni sifatli hamda majmuali tarzda hal etish zarur.

Iqtidorli yoshlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ulardagagi tug'ma qobiliyatni, iqtidor va iste'dodini erta yoshdan boshlab aniqlashga e'tibor qaratishimiz orqali kelajakda vatanimizdan buyuk shaxslar yetishib chiqishiga o'z hissamizni qo'shgan bo'lamiz. Buning uchun biz bolalardagi iqtidor

va qobiliyatni o'z vaqtida aniqlab, to'g'ri yo'naltirib rivojlantirsak, ularning kelgusida yangi-yangi kashfiyotlarni yaratishlariga zamin yaratgan bo'lamic. Shu sababli axloqli sof mantiqiy tafakkuri kuchli, aqliy madaniyati yuqori bo'lgan. Bolalarni maxsus o'qitish va ularga ko'proq umid bog'lash lozim. Aynan shunday bolalar kelgusida yanada muhimroq iqtisodiy ,ilmiy va ijtimoiy masalalarni yechishga qodir bo'ladilar. O'zbek avlodini jahonga ko'z-ko'z qila oladigan kishilar-bu iste'dodli, qobiliyatli, zukko, o'z ishining ko'zini bilib bajaradigan qo'li gul, o'z sohasining mohir mutaxassislaridir. Dono, tetik, aqli raso bolalarni sinf o'quvchilari orasidan asosli ravishda tanlashimiz va ularni layoqat yo'nalishlari, qobiliyatlariga qarab u yoki bu sohaga, kasbga yo'naltirishimiz kerak. Is'tedodli bolalarni aniqlab ular bilan ishslashda qudagilarga amal qilinganda yaxshi natijalarga erishiladi:

-Har bir bola takrorlanmasdir. Ba`zilari she'r yozish, ba`zilari matematikadagi qobiliyati bilan bir xillari esa yuqori intellekti bilan ajralib turadi.

Yosh avlodga ta'lim-tarbiya berayotgan pedagog maxsus pedagogik, psixologik va mutaxassisligi bo'yicha chuqur bilimli va yuksak fazilatli shaxs hisoblanadi. Shu bois, bugungi kun zamonaviy o'qituvchisida quyidagi fazilatlar bo'lishi lozim. U o'zining mutaxassisligi bo'yicha puxta bilimga ega bo'lishi, o'z ustida muntazam ishlashi, ta'lim-tarbiya pedagogikasi va psixologiyasi, fiziologiya fanlarining asoslarini bilishi, mashg'ulotlar jarayonida bolalarning yoshi va psixologik xususiyatlarini inobatga olgan holda faoliyatini tashkil etishi lozim. Ustoz-murabbiylar ta'lim-tarbiya jarayonida samarali shakl, metod va vositalardan unumli foydalanishni bilishi kerak.

Ko'pgina is'tedodli o'quvchilarning qiziqishlari ko'p qirralidir. Istedodli bolalar boshqa bolalar bilan o'qigan taqdirda ham, is'tedodli boshqa bolalar bilan muloqat qilish imkoniyatini yaratish kerak. Is'tedodli bolalarning dasturi har tomonlama mukammal bo'lishi zarur. Is'tedodli bolalarni o'qitishning namunali rejasini ish faoliyatiga bevosita tatbiq qilish kerak. Bugungi kun o'qituvchisi o'ziga yuklangan vazifani bajarish uchun bolalarda o'sha faoliyatga nisbatan qiziqish uyg'ota olishi, ularning diqqatini jalb qilib faolligini o'stirish, bolalarning xulqini, hatti-harakatini real baholay olishi kerak.

Har bir faoliyat uchun zarur bo'lgan materialni oldindan tayyorlab qo'yishi, yangi bilimni egallagan bilimlar bilan bog'lay olishi kerak. Bolalar egallab olishi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalar ularning yoshlik xususiyatlariga mos bo'lishi kerak. U bolalarning ruhiy va jismoniy holatini aniqlay bilishi va uni bolalar bilan amalga oshiradigan ta'lim-tarbiyaviy ishlarida e'tiborga olishi kerak. Pedagogik mahoratning mohiyatini tahlil etish, undan etarli darajada xabardor bo'lib uni amaliyotda qo'llay olish pedagogning bilimi, tajribasi va kreativligiga bog'liq. Demak, bugungi kun o'qituvchisining pedagogik faoliyatida pedagogik mahorat alohida o'ringa ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAT:

- 1) I.Ibragimov U.Yo'ldoshev X.Bobomirzayev Pedagogik psixologiya.. Toshkent.2007y
- 2) J.G'.Yo'ldoshev. Zamonaviy pedagogik texnalogiyalarni amaliyotga joriy etish. O'quv qo'llanma. T 2008.
- 3) D.A.Abduraxmonova, R.A. Mavlonova "Pedagogik mahorat" Toshent 2012 yil.